

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRXAMIDOVA ZAHINABONU MIRXAMID QIZI

**IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA TO‘RTINCHI SANOAT
INQILOBI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)
in Economics Sciences**

Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi

Iqtisodiy o‘shni ta’minlashda to‘rtinchi sanoat inqilobi imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari.....3

Мирхамидова Захинабону Мирхамид кизи

Способы использования возможностей четвертой промышленной революции для обеспечения экономического роста27

Mirkhamidova Zakhinabonu Mirkhamid kizi

Patterns of harnessing the opportunities of the fourth industrial revolution for economic growth53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRXAMIDOVA ZAHINABONU MIRXAMID QIZI

**IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA TO‘RTINCHI SANOAT
INQILOBI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1PhD/Iqt3682 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash web-sahifasida (www.tiame.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shadmanov Erkin Sherkulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rasulev Alisher Fayziyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamadiyarov Zokir Tashtemirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax Politehnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. tel. (99872) 239-28-72), ((99872) 239-01-49, faks: (71) 239-43-51), e-mail: info@tseu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ -raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. tel. (99872) 239-28-72), ((99872) 239-01-49, faks: (71) 239-43-51), e-mail: info@tseu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ da tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Raqamli texnologiyalar va jismoniy tizimlarning birlashishi bilan tavsiflanadigan to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida global iqtisodiyot, jamiyat va geosiyosat yangi muammolar va imkoniyatlar bilan bog‘liq keng ko‘lamli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Jahon bankining “Global Economic Prospects” hisobotiga ko‘ra, “to‘rtinchi sanoat inqilobi 2030-yilgacha jahon yalpi ichki mahsulotining yillik o‘shishini 1,4 foizga ta‘minlashi kutilmoqda. Bunday holat yangi texnologiyalar imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish va ular bilan bog‘liq risklarni minimallashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi”¹. Davlatlar va biznes tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishi uchun, inson kapitali va innovatsiyalarni rivojlantirishga sarmoya kiritish, shuningdek, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta‘minlash imkonini beradigan samarali strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Jahonda global raqobatning keskinlashib borishi sharoitida to‘rtinchi sanoat inqilobining iqtisodiyot va jamiyatga ta‘siriga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar qamrovi kengayib bormoqda. Sun‘iy intellekt (AI), robototexnika va “buyumlar interneti” (IoT) kabi yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish va logistika jarayonlariga joriy etish usullarini aniqlash, bizneslarning raqamli infratuzilmasini yaratish va global raqobatda ularning ishtirokini kuchaytirish, ish o‘rinlarining avtomatlashtirilishi va yangi kasblarning yuzaga kelishi bo‘yicha ilmiy prognozlar qilish, barqaror energiya manbalari va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, maxsus iqtisodiy hududlar va raqamli klasterlarni yaratish, raqamli xavfsizlik va huquqiy muhitni shakllantirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida, axborot texnologiyalari faol joriy etilayotgan va ushbu sohaga keng ko‘lamli davlat investitsiyalari amalga oshirilayotgan davrda, to‘rtinchi sanoat inqilobining iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya, diversifikatsiyash va rivojlanishning innovatsion modeliga o‘tishda to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini joriy etish esa ushbu maqsadlarga erishishning asosiy omili hisoblanadi. Ushbu sohaga 2024-yilda 21 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilishi va yil oxirigacha bu miqdorning 43 trillion so‘mgacha oshirilishi davlatning raqamli transformatsiyadagi niyatlarining jiddiyligidan dalolat beradi². Shu munosabat bilan, respublikada ta‘lim va kadrlarni qayta tayyorlashga investitsiyalar kiritish, infratuzilmani takomillashtirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, biznes uchun qulay muhit yaratish va yangi texnologiyalarning uzluksiz ishlashini ta‘minlaydigan raqamli bozorlarni tartibga solishning samarali tizimini ishlab chiqish orqali inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish, mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, raqamlashtirishning salbiy

¹ World Bank, 2021. Global Economic Prospects, June 2021. Available at: <<https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/6feb9566-e973-4706-a4e1-b3b82a1a758d/content>>

² SNG.FM, 2024. Более 21 трлн сумов потратили в Узбекистане на развитие IT-сферы. Available at: <<https://sng.fm/tashkent/34073-bolee-21-trln-sumov-potratili-v-uzbekistane-na-razvitie-it-sfery.html>>

ijtimoiy oqibatlarini yumshatish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra, mazkur vazifalarning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-son “O'zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. To'rtinchi sanoat inqilobining ilmiy-nazariy jihatlari va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri xorijlik olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Xususan, nazariy asoslarni o'rganish Robert Solou³ va Pol Romer⁴ kabi iqtisodchilarning ishlarida o'z aksini topgan bo'lib, ular iqtisodiy o'sishda texnologiyaning rolini tushunishga asos solishgan (Solou tashqi texnologik zarbalarni, Romer esa ichki innovatsiyalarni ta'kidlagan). Karl Benedikt Frey va Maykl Osborn⁵ ishni avtomatlashtirish xatarlarini o'rgangan bo'lsa, Erik Brynjolfsson va Endryu McAfeening⁶ raqamli texnologiyalar orqali yangi yuqori samarali ish o'rinlarini yaratishni ta'kidlashgan. Oliver Uilyamson⁷ korporativ tuzilmalarni raqamli o'zgartirish nazariyasini ishlab chiqqan, Tomas Piketti⁸ va Emmanuel Saez⁹ esa adolatli jamiyat uchun raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini qayd etib, daromadlar tengsizligining kuchayishini o'rganishgan.

³ Solow, R.M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70, 65-94.

⁴ Romer, P. (1986). Increasing Returns and Long-Run Growth. *Journal of Political Economy*, 94, 1002 - 1037

⁵ Frey, Carl & Osborne, Michael. (2013). The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation? Oxford Martin. 114. 10.1016/j.techfore.2016.08.019.

⁶ Brynjolfsson, Erik, and Andrew McAfee. "Winning the race with ever-smarter machines." *MIT Sloan Management Review* 53.2 (2012): 53-60.

⁷ David J Teece, Innovation, governance, and capabilities: implications for competition policy: A Tribute to Nobel Laureate Oliver Williamson by his Colleague and Mentee David J. Teece, *Industrial and Corporate Change*, Volume 29, Issue 5, October 2020, Pages 1075–1099, <https://doi.org/10.1093/icc/dtaa043>

⁸ Thomas Piketty (2014), *Capital in the Twenty-First Century*. Translated by Arthur Goldhammer. Cambridge, Massachusetts: Belknap Press of Harvard University Press. £29.95, 685 pp., hbk. - Volume 45 Issue 1 - JOHN D. STEPHENS.

⁹ Saez, Emmanuel. (2013). *Striking it Richer: The Evolution of Top Incomes in the United States* (Updated with 2009 and 2010 estimates).

MDH mamlakatlarida A.Akayev, S.Glazyeв, L.Grinin, R.Kapelyushnikov, V. Kushlin, D.Lvov, I.Strelets¹⁰ va boshqa olimlar to‘rtinchi sanoat inqilobi aspektlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O‘zbekistonlik olimlar M.K. Abdullayev, N.K. Zokirova, M.Y. Xodjayeva, B.Y. Yangiboyev, O.N. Teshabayeva, G.I.Yo‘ldasheva, Sh.I. Boboxo‘jayev va I.Y. Jukovskaya¹¹lar o‘z ilmiy ishlarida to‘rtinchi sanoat inqilobi O‘zbekistonning iqtisodiy o‘shishiga qanday hissa qo‘shishini tahlil etishgan. Ularning faoliyati respublikada raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga qaratilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda to‘rtinchi sanoat inqilobi imkoniyatlaridan iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda dissertatsiya tadqiqotining mustaqil mavzusi sifatida foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu holatning mazkur muammoni dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning maqsadi mamlakat iqtisodiy o‘shishini jadallashtirish uchun to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini samarali joriy etishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

to‘rtinchi sanoat inqilobining mohiyati, asosiy belgilari va oldingi sanoat inqiloblaridan farqlovchi belgilarini tadqiq qilish;

O‘zbekiston sharoitida to‘rtinchi sanoat inqilobining amalga oshirilishining xususiyatlarini o‘rganish;

to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida iqtisodiy o‘shishga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilish;

“aqlii shaharlar” konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekistonda aqlii shaharlarni rivojlantirish uchun raqamli egizaklarni joriy etish rejasini ishlab chiqish;

¹⁰ Акаев А.А., Румянцева С.Ю., Сарыгулов А.И., Соколов В.Н. Экономические циклы и экономический рост. // СПб.: СПбГПУ. - 2011. - 456 с. Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития/ С.Ю. Глазьев. - М.: ВладДар, 1993. - 310 с. Гринин Л.Е., Коротаев А.В., Гринберг Р.С. Кризисы и прогнозы в свете теории длинных волн // М.: Моск. ред. изд-ва «Учитель», 2016. - 368 с. Капелюшников Р.И. Технологический прогресс - пожиратель рабочих мест?/ Р.И. Капелюшников // Вопросы экономики. - 2017. - № 11. - С. 111140. Кушлин В.И. Инновационное наполнение инвестиционной политики. / Отв.ред. Кушлин В.И. // Проспект. - 2016 г. - 132 с. Львов Д.С., Глазьев С.Ю. Теоретические и прикладные аспекты управления НТП // Экономика и математические методы : журнал. - М., 1986. - № 5. - С. 793 - 804. Стрелец И.А. Перспективы модификации поведения экономических агентов в глобальной информационной системе / И.А.Стрелец // Перспективы экономической глобализации: монография / коллектив авторов; под ред. А.С.Булатова. — М.: КНОРУС, 2019. — С. 255-272.

¹¹ Абдуллаев М.К. Тенденции развития цифровой экономики в Республике Узбекистан // Экономика и инновационные технологии. – 2021. Зокирова Н.К., Ходжаева М.Я. Актуальные аспекты цифровой трансформации образовательной среды // Вопросы инновационной экономики. – 2021. – № 3. – с. 1259-1272. – doi: 10.18334/vines.11.3.112998. Янгибоев Б.Я. Цифровая экономика: сущность и социально-экономическое значение. - Самарканд: Фан булаг, 2022. Тешабаева О.Н., Йулдашева Г.И. Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан // Universum: экономика и юриспруденция: электрон. научн. журн. 2020. № 7 (72). URL: <https://7universum.com/ru/economy/archive/item/9618> (дата обращения: 14.11.2024). Бобохужаев Ш. (2023). Специфика развития цифровой экономики в Узбекистане. in Library, 22(3), 211–233. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/22617> Жуковская И.Е. Цифровые технологические решения - важный фактор развития национальной экономики Республики Узбекистан // Научный результат. Экономические исследования. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovyye-tehnologicheskie-resheniya-vazhnyy-faktor-razvitiya-natsionalnoy-ekonomiki-respubliki-uzbekistan> (дата обращения: 14.11.2024).

inson kapitaliga investitsiyalarni baholash va ularni O‘zbekistonda rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini taklif etish;

O‘zbekistonda to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini joriy etish yo‘lidagi asosiy to‘siqlarni aniqlash;

O‘zbekistonda to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish maqsadida ularni samarali amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda to‘rtinchi sanoat inqilobi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish jarayonida sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, tarixiy-mantiqiy, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyoslash va saralash, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, korrelyatsion-regression tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “to‘rtinchi sanoat inqilobi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi asosida iqtisodiyot, sanoat va jamiyatdagi tub o‘zgarishlarga olib keluvchi yangi biznes modellarini shakllantirishga turtki beruvchi sun‘iy intellekt, Internet texnologiyalari, blokcheyn, “aqlli” uskunalar va robototexnika kabi innovatsiyalar orqali fizik, raqamli va biologik tizimlarning tasnifi, ularning sinergik ta‘sirini hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

“aqlli shahar” konsepsiyasi uning rivojlanishidagi texnologik, inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy-ekologik yo‘nalishlardagi ilmiy maktablardagi asosiy nazariy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali shahar hayotining barcha jabhalarini hisobga olgan va batafsil rivojlanish rejasini (roadmap), texnologik stekni va xavflarni baholashni o‘z ichiga olgan adaptiv raqamli egizak modeli asosida takomillashtirilgan;

iqtisodiy o‘shishning neoklassik, endogen o‘shish va to‘rtinchi sanoat inqilobi nazariyalarining asosiy g‘oyalarini uyg‘unlashtirish asosida iqtisodiy o‘shishga ta‘sir qiluvchi 4 ta asosiy guruh [texnologik ($Tex = 0,27-0,32$), institutsional ($Ins = 0,31 - 0,36$), ijtimoiy ($Ijt = 0,17 - 0,22$) va iqtisodiy ($Iqt = 0,20 - 0,25$)] omillarga to‘rtinchi sanoat inqilobining ta‘sir darajasi o‘rtasidagi maqbul nisbat aniqlangan;

O‘zbekistonda innovatsion loyihani amalga oshirishning boshlang‘ich pallasi hamda loyihadan iqtisodiy daromad olish o‘rtasidagi vaqt oraliq‘ini minimallashtirishga yordam beruvchi “Innovatsiyalarni tezlashtirilgan tarzda joriy etish va iqtisodiy samarani olishning innovatsion ekotizimi” sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini sinergetik ta‘sirini hisobga olgan holda tasniflashni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

shahar xo'jaligini boshqarish jarayonini optimallashtirish, hayot sifatini oshirish va iqtisodiyotni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston shaharlarida raqamli egizaklarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

to'rtinchi sanoat inqilobining iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarning 4 ta asosiy guruhlariga ta'sir darajasi o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlash taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda innovatsion loyihani amalga oshirishni boshlash va undan iqtisodiy daromad olish o'rtasidagi vaqtinchalik kechikishni minimallashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi unda qo'llanilgan yondashuv va instrumentlarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, zamonaviy integral va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil etilganligi hamda tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan iqtisodiy o'sish uchun to'rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi tomonidan O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish uchun to'rtinchi sanoat inqilobi salohiyatidan foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiy nazariya", "Raqamli iqtisodiyot" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarni o'qitish jarayonida foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun to'rtinchi sanoat inqilobi imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "to'rtinchi sanoat inqilobi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi asosida iqtisodiyot, sanoat va jamiyatdagi tub o'zgarishlarga olib keluvchi yangi biznes modellarini shakllantirishga turtki beruvchi sun'iy intellekt, Internet texnologiyalari, blokcheyn, "aqlli" uskunalar va robototexnika kabi innovatsiyalar orqali fizik, raqamli va biologik tizimlarning tasnifi, ularning sinergik ta'sirini hisobga olgan holda takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy nazariya" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022-yil 24-oktabrdagi 328-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 328-003). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda "to'rtinchi sanoat inqilobi" tushunchasining konseptual asoslari va uni sinergetik ta'sir nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan iqtisodiy kategoriya sifatida tasniflash bo'yicha nazariy bilimlarini chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

“aqli shahar” konsepsiyasi uning rivojlanishidagi texnologik, inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy-ekologik yo‘nalishlardagi ilmiy maktablardagi asosiy nazariy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali shahar hayotining barcha jabhalarini hisobga olgan va batafsil rivojlanish rejasini (roadmap), texnologik stekni va xavflarni baholashni o‘z ichiga olgan adaptiv raqamli egizak modeli asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 33-8/1096-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida shahar jarayonlarini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va aholining hayot sifatini yaxshilash imkoni yaratilgan;

iqtisodiy o‘shishning neoklassik, endogen o‘shish va to‘rtinchi sanoat inqilobi nazariyalarining asosiy g‘oyalarini uyg‘unlashtirish asosida iqtisodiy o‘shishga ta’sir qiluvchi 4 ta asosiy guruh [texnologik ($Tex = 0,27-0,32$), institutsional ($Ins = 0,31 - 0,36$), ijtimoiy ($Ijt = 0,17 - 0,22$) va iqtisodiy ($Iqt = 0,20 - 0,25$)] omillarga to‘rtinchi sanoat inqilobining ta’sir darajasi o‘rtasidagi maqbul nisbat aniqlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 33-8/1096-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, resurslar taqsimotini optimallashtirish, iqtisodiy o‘shish sur’atlarini jadallashtirish va aholi turmush darajasini oshirish imkoni berilgan;

O‘zbekistonda innovatsion loyihani amalga oshirishning boshlang‘ich pallasi hamda loyihadan iqtisodiy daromad olish o‘rtasidagi vaqt oralig‘ini minimallashtirishga yordam beruvchi “Innovatsiyalarni tezlashtirilgan tarzda joriy etish va iqtisodiy samarani olishning innovatsion ekotizimi” sxemasidan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 33-8/1096-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining ta’lim darajasi va malakasini oshirish, shuningdek, davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan, 4 ta maqola respublika, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 166 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan; muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan; respublikada olib borilayotgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslangan; dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyasining **“Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda to'rtinchi sanoat inqilobini amalga oshirishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida to'rtinchi sanoat inqilobining nazariy asoslari, uning iqtisodiy o'sish uchun ahamiyati va O'zbekistonda uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. To'rtinchi sanoat inqilobi va iqtisodiy rivojlanish omillarining o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilgan.

“To'rtinchi sanoat inqilobi” tushunchasi Klaus Shvab¹² tomonidan jismoniy, raqamli va biologik olamlarning birlashishini tasvirlash uchun kiritilgan. Oldingi inqiloblardan farqli o'laroq, to'rtinchi inqilob sun'iy intellekt, buyumlar interneti va robototexnika kabi texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Mualliflar P.Ros va K.Maynardning ta'kidlashicha, to'rtinchi sanoat inqilobi texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy moslashuv, jumladan, yangi ish o'rinlari yaratish o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi¹³. Li Min Xva¹⁴ ushbu inqilobni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ochiq innovatsiyalarning muhim ekanligiga e'tibor qaratgan. Yang Lu¹⁵ sanoat 4.0 ni narsalar Interneti, kiberfizik tizimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'laydi.

To'rtinchi sanoat inqilobining yuqoridagi ta'riflari va xususiyatlarini tahlil qilib, biz ushbu atamaning quyidagi tizimli talqinini taklif qilamiz: “To'rtinchi sanoat inqilobi – bu global ijtimoiy-texnologik jarayon bo'lib, u raqamli fizik va biologik texnologiyalarning eksponensial o'sishi va integratsiyasi bilan tavsiflanib, ishlab chiqarish tizimlarining, iqtisodiy munosabatlarning va ijtimoiy tuzilmalarning radikal transformatsiyasiga olib kelgan holda insoniyat jamiyatining yangi paradigmasini shakllantiradi”.

Strukturalash va chuqur tahlil qilish uchun, texnologiyalar klassifikatsiyasini uchta asosiy toifaga (asosiy texnologiyalar, transformatorlar va kuchaytirgichlar)

¹² Шваб К. Четвертая промышленная революция / К. Шваб — «Эксмо», 2016 — (Top Business Awards) ISBN 978-5-699-90556-0

¹³ Ross, P. and Maynard, Kasia. "Towards a 4th industrial revolution." *Intelligent Buildings International*, 13 (2021): 159 - 161. <https://doi.org/10.1080/17508975.2021.1873625>

¹⁴ Lee, Minhwa et al. "How to Respond to the Fourth Industrial Revolution, or the Second Information Technology Revolution? Dynamic New Combinations between Technology, Market, and Society through Open Innovation." *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity* (2018). <https://doi.org/10.3390/JOITMC4030021>

¹⁵ Лу Я. Практика применения интеллектуальных цифровых технологий в автомобильной промышленности Китая / Я. Лу // Вестник евразийской науки. — 2024. — Т. 16. — № 1. — URL: <https://esj.today/PDF/36ECVN124.pdf>

ishlab chiqdik. Taklif etilayotgan klassifikatsiya to‘rtinchi sanoat inqilobi asosida yotgan 12 ta asosiy texnologiyani qamrab oladi va ularning o‘zaro munosabatlari va ishlab chiqarish jarayonlarini o‘zgartirish imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy texnologiyalar (sun‘iy intellekt, narsalar Interneti, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash) iqtisodiyotning raqamli o‘zgarishini ta’minlaydi, innovatsiyalar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun asos yaratadi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali ushbu texnologiyalar yanada muvozanatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, biznes jarayonlarini optimallashtirishga va yangi bozorlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Transformator texnologiyalari (robotlashtirish, 3D bosib chiqarish, blokcheyn) ishlab chiqarish paradigmalarini tubdan o‘zgartiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Ushbu texnologiyalarning joriy etilishi yangi biznes modellarini yaratishga yordam beradi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Kengaytirilgan texnologiyalar (to‘ldirilgan va virtual reallik, taqiladigan qurilmalar) inson imkoniyatlarini kengaytiradi, ish samaradorligi va hayot sifatini oshiradi. Ularning iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llanilishi mahsulдорlikning o‘sishiga va yangi bozorlarni yaratishga yordam beradi.

O‘zbekiston to‘rtinchi sanoat inqilobining global jarayonlariga faol integratsiyalashmoqda. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar, jumladan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash va aholining raqamli savodxonligini oshirish kabilar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi intellektual sanoat va jamiyatlarni yaratishga qaratilgan.



1-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari¹⁶

O‘zbekiston nafaqat raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga faol sarmoya kiritibgina qolmay, balki asosiy sohalarga va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvga e’tibor qaratib, innovatsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Ushbu yondashuv texnologik rivojlanishni tezlashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Neoklassik, endogen o‘sh nazariyalari va to‘rtinchi sanoat inqilobi konsepsiyasining sintezi asosida iqtisodiy o‘shga ta’sir etuvchi texnologik (Tex =

¹⁶ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

0,27-0,32), institutsional (Ins = 0,31-0,36), ijtimoiy (Ijt = 0,17-0,22) va iqtisodiy (Iqt = 0,20-0,25) omillar o'rtasidagi optimal nisbat aniqlandi.

Texnologik omil (Tex = 0,27-0,32) iqtisodiy o'sishni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va robototexnika kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va moslashtirish tezligi iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liqdir. Bizning fikrimizcha, texnologiyaning rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlariga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi va ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi (bu ishlab chiqarishning kapital intensivligining oshishiga olib keladi va mehnat unumdorligi va kapital-mehnat nisbati oshishi o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi), resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish (energiya, xom ashyo va materiallarni tejash orqali), keyinchalik samarali uskunalarni yaratish orqali kapital qo'yilmalarni qisqartirish amalga oshiriladi.

Institutsional kontekst (Ins = 0,31-0,36) transformatsiya jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalar va raqobatni rivojlantirishga yordam beradigan moslashuvchan va adaptiv davlat tomonidan tartibga solish tizimi biznes uchun qulay muhit yaratadi. Tez o'zgaruvchan texnologik voqelikka moslasha oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim tizimining sifati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uzoq muddatli va innovatsiyalarga yo'naltirilgan samarali korporativ boshqaruv kompaniyalarning raqobatbardoshligini va iqtisodiyotning barqarorligini oshiradi.

Ijtimoiy omillar (Ijt = 0,17-0,22) bir xil darajada muhim rol o'ynaydi. Ta'lim, ko'nikma va tajribani o'z ichiga olgan inson kapitalining sifati iqtisodiyotning yangi texnologik qiyinchiliklarga moslashish qobiliyatini belgilaydi. Yuqori ijtimoiy harakatchanlik innovatsiyalar va tadbirkorlikni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratish va turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Xavf, tajriba va yangi g'oyalarni rag'batlantiradigan innovatsion madaniyat iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir.

Iqtisodiy omillar (Iqt = 0,20-0,25) nuqtayi nazaridan, o'sishning asosiy omillari jismoniy va inson kapitaliga investitsiyalar, shuningdek, tadqiqot va ishlanmalardir. Shu bilan birga, iqtisodiy ochiqlik va global qiymat zanjirlarida faol ishtirok etish samaradorlik va eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi. Ichki va tashqi talab iqtisodiy faoliyatning bevosita stimulyatoridir.

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bo'lishi mumkin. Masalan, infratuzilma investitsiyalari kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga turtki berishi mumkin, bu esa o'z navbatida ichki talabni oshiradi.

Turli manbalarni o'rganish natijasida biz to'rtinchi sanoat inqilobi iqtisodiy o'sish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni va yangi muammolarni yaratadi degan xulosaga keldik. Ushbu o'zgarishlardan maksimal darajada foydalanish uchun inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga sarmoya kiritish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, moslashuvchan tartibga solish muhitini yaratish va barqaror rivojlanish masalalariga alohida e'tibor berish kerak.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiy o‘shishga erishish sharoitida to‘rtinchi sanoat inqilobi rivojlanishining hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rtinchi sanoat inqilobining hozirgi holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda aqlli shaharlarning iqtisodiy o‘shishga ta’siri, shuningdek, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitalida investitsiyalarning o‘rni ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston sharoitida to‘rtinchi sanoat inqilobini amalga oshirish muammolariga alohida e’tibor qaratilgan.

Urbanizatsiya va texnologik taraqqiyotning global tendensiyasi “aqlli shaharlar” konsepsiyasining jadal rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. 2050-yilga borib dunyo aholisining 60 foizga yaqini ilg‘or texnologiyalar va infratuzilma bilan jihozlangan ana shunday megapolislarda yashashi kutilmoqda. Aqlli shaharlar bozorining hajmi 2032-yilga kelib 10 trillion AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda¹⁷.

“Aqlli shaharlar indeksi 2024” reytingida Yevropa shaharlari yetakchi o‘rinda barqaror tendensiyani ko‘rsatadi. Shu bilan birga, fuqarolarning hayot sifati va shahar boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni faol tatbiq etayotgan Osiyo megapolislarida ham sezilarli muvaffaqiyatlar kuzatilmoqda.

Taqdim etilgan 1-jadvalda 2024- va 2023-yillardagi Smart Cities Index reytingidagi turli shaharlarning pozitsiyalari va ularning turli mezonlar bo‘yicha reytinglari ko‘rsatilgan. Ma’lumotlarni tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon berdi: Tsyurix, Oslo va Kanberra 2024-yilgi Smart Cities Index reytingida o‘zlarining yetakchi mavqeini saqlab qolganligi, ularning texnologik va infratuzilmaviy rivojlanishining barqarorligidan dalolat beradi. Jeneva va Dubay 5 pog‘onaga ko‘tarilib, yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etganligini va shahar infratuzilmasini yaxshilashda sezilarli o‘shishni ko‘rsatganligidan dalolat beradi. Taypey Siti 13 pog‘onaga ko‘tarilib, eng yuqori o‘shishni namoyish etdi, bu esa aqlli shaharning turli jabhalarida sezilarli yaxshilanishlardan dalolat beradi. Kopengagen, Lozanna, London va Xelsinki 2 ta pozitsiyani yo‘qotdilar, bu ularning aqlli shaharlarni rivojlantirish strategiyasini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Gamburg va Amsterdarning ham reytingi pasayib, 3 ta pozitsiyani yo‘qotgan, bu texnologiya va infratuzilmaning turli muammolari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shanxay va Abu-Dabi o‘z pozitsiyalarini mos ravishda 6 va 3 pog‘onalarga ko‘tarib, aqlli shaharlarni rivojlantirish strategiyalarida taraqqiyotdan dalolat bermoqda.

2024-yilgi Smart Cities Index reytingi natijalarini tahlili Shveysariyani aqlli shaharlar rivojlanishida yetakchi sifatida ajratishga imkon beradi. Shveysariyaning uchta shahri-Tsyurix (1-o‘rin), Jeneva (4-o‘rin) va Lozanna (7-o‘rin) – 2024-yilda Smart Cities Index reytingida birinchi o‘ntalikdan joy olgan. Ushbu shaharlar aholisining hayot sifati, energiya samaradorligini va ekologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni faol ravishda joriy etmoqda.

¹⁷ Elad, B. (2024, January 11). Smart City Statistics 2023 by Companies, Market Share, Prioritized Areas and Country Rank. [Website]. Enterprise Apps Today. <https://www.enterpriseappstoday.com/stats/smart-city-statistics.html>

Smart Cities Index bo'yicha 2019–2024-yillarda dunyoning yuqori pozitsiyadagi shaharlari¹⁸

Shahar	2024	Reyting 2023-yilda	Reyting 2021-yilda	Reyting 2020-yilda	Reyting 2019-yilda	Reyting 2024-yilda	Texnologiya 2024-yilda	Tuzilma 2024-yilda	Taqqoslashdagi o'zgarish 2023-yildan 2024-yilgacha
Tsyurix	1	1	1	1	1	AAA	AA	AAA	-
Oslo	2	2	2	2	2	AA	A	AA	-
Kanberra	3	3	-	-	-	AA	A	AAA	-
Jeneva	4	9	5	3	4	AAA	AA	AAA	+5
Singapur	5	7	4	--	—	A	A	A	+2
Kopengagen	6	4	3	10	3	AA	A	AA	-2
Lozanna	7	5	7	7	10	AA	A	AA	-2
London	8	6	9	5	6	A	AA	BBB	-2
Xelsinki	9	8	6	8	7	AA	A	AA	-2
Abu-Dabi	10	13	11	9	9	BB	BB	BB	+3
Stokgolm	11	10	8	6	—	A	A	A	-1
Dubay	12	17	17	22	30	BB	BB	BB	+5
Pekin	13	12	12	14	16	BB	BB	BB	-1
Gamburg shahri	14	11	10	4	8	BBB	BBB	BBB	-3
Praga	15	14	13	11	11	A	A	A	-1
Taypey Shahri	16	29	18	20	23	A	BBB	A	+13
Seul	17	16	14	19	13	AA	BBB	AAA	-1
Amsterdam	18	15	29	32	22	A	BBB	A	-3
Shanxay	19	25	33	34	38	BB	BB	BB	+6
Gonkong	20	19	—	—	—	A	BBB	AAA	-1

Eslatma: chiziqlar aqlli shaharlarning ko'lamini ushbu yillarda reytingga kiritish uchun yetarli bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Shaharlarning raqamli egizaklaridan foydalanish O'zbekistonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan shahar xo'jaligini boshqarishning zamonaviy tizimini bosqichma-bosqich yaratishga imkon beradi (2-jadval).

O'zbekiston shaharlarida raqamli egizaklarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy risklarni aniqlash va kamaytirish matritsasi ishlab chiqilgan (3-jadval).

¹⁸ IMD ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. (2024). *Smart City Index 2024: Full Report*. IMD Business School. Retrieved from https://www.imd.org/wp-content/uploads/2024/04/20240412-SmartCityIndex-2024-Full-Report_4.pdf.

O‘zbekistonda shaharning raqamli egizaklarini yaratish bo‘yicha roadmap loyihasi: konsepsiyadan tortib to masshtablashtirishgacha¹⁹

Bosqich	Vazifalar	Quyi vazifalar
1. Tayyorgarlik bosqichi	Loyihaga tayyorgarlik	Joriy holatni tahlil qilish, jamoani shakllantirish, sinov shaharlarni tanlash, konsepsiyani ishlab chiqish
		Ma'lumotlarni baholash, muammolarni aniqlash, qonunchilikni tahlil qilish, mutaxassislarni jalb qilish, maqsadlarni aniqlash, texnologiyalarni tanlash, arxitekturani rivojlantirish
2. Asosiy modelni yaratish	Raqamli asosni qurish	Ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, 3D modelni yaratish, jarayonlarni modellashtirish
		Platformani yaratish, standartlashtirish, ma'lumotlarni tozalash, shahar modelini yaratish, ma'lumotlarni birlashtirish, oqimlarni modellashtirish
3. Funksionallikni joriy etish	Modellashtirish va tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etish	Ssenariylarni modellashtirish, shahar tizimlari bilan integratsiya, interfeysni ishlab chiqish, xavfsizlikni ta'minlash
		Prognozlash, yechimlarni baholash, interfeyslarni yaratish, ma'lumotlarni himoya qilish
4. Kengaytirish va masshtablashtirish	Tizimning o'sishi va rivojlanishi	Yangi modullarni qo'shish, geografik qamrovni kengaytirish, davlat tizimlari bilan integratsiya
		Ijtimoiy ma'lumotlarni tahlil qilish, chiqindilarni boshqarish, atrof-muhit monitoringi, boshqa shaharlarga kengaytirish, yagona axborot makonini yaratish
5. Qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish	Dolzarblikni saqlash va tizimni rivojlantirish	Ma'lumotlarni yangilash, jarayonlarni avtomatlashtirish, funksionallikni rivojlantirish, foydalanuvchilarni o'qitish
		Muntazam yangilash, avtomatlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, moslashtirish, mutaxassislarni tayyorlash

“Aqlli shahar” konsepsiyasini amalga oshirish va to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida muvaffaqiyatli ishlash inson kapitalini rivojlantirishga keng ko‘lamli va izchil investitsiyalarni talab qiladi.

2013-yildan beri BMTning rivojlanish dasturi tomonidan ishlab chiqilgan Human development index (inson taraqqiyoti indeksi) turmush darajasi va inson salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro taqqoslashlarni amalga oshirish uchun keng qo‘llanilmoqda.

Taqdim etilgan ma'lumotlar 1990-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda inson taraqqiyoti indeksi (inson taraqqiyoti indeksi) yuqori bo‘lgan mamlakatlarning

¹⁹ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

rivojlanish dinamikasini chuqur tahlil qilishga imkon beradi (4-jadval). Ushbu sohadagi yetakchi davlatlarning tajribasini o‘rganish insonning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan asosiy omillarni aniqlash va boshqa mamlakatlar uchun tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

3-jadval

Iqtisodiy jihatlarga e‘tibor qaratgan holda O‘zbekistonda aqlli shaharlarning raqamli egizaklarini yaratishda ularni minimallashtirish bo‘yicha xavf-xatarlar va chora-tadbirlar matritsasi²⁰

Muammo	Yechimlar	Iqtisodiy effektlar
Yuqori narx	Ochiq dasturiy ta‘minot va bulutli texnologiyalarni qo‘llash Modulli tizimni bosqichma-bosqich joriy etish Davlat-xususiy sheriklik tizimini qo‘llash	Tizimni yaratish va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish, keng foydalanuvchilar uchun texnologiya mavjudligini oshirish
Ma‘lumotlarning yetishmasligi ma‘lumotlarni	Batafsil inventarizatsiya qilish va standartlashtirish Machine learning usullaridan foydalanish Davlat organlari bilan hamkorlik	Modellashtirish aniqligini oshirish, qaror qabul qilishni yaxshilash, shahar jarayonlarini optimallashtirish
O‘zgarishlarga qarshilik	Aholining raqamli savodxonligini oshirish Manfaatdor tomonlarni muloqotga jalb qilish Innovatsiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish	Tezlashtirish, shahar xizmatlari samaradorligini oshirish, aholining hayot sifatini yaxshilash
Kiberxavfsizlik	Ko‘p darajali axborotni himoya qilish tizimi Tahdidlarni muntazam ravishda kuzatib borish Kiberxavfsizlik markazini yaratish	Investitsiyalarni himoya qilish, maxfiy ma‘lumotlarning tarqalishini oldini olish, tizimga ishonchni oshirish

Shimoliy Yevropa ijtimoiy yo‘naltirilganligi va ekologik tozaligi, Anglo-sakson mamlakatlari – bozor iqtisodiyoti va xilma-xilligi, Osiyo yo‘lbarzlari-eksport yo‘nalishi va yangiliklari, kontinental Yevropa esa bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy himoya kombinatsiyasi bilan ajralib turadi.

Inson taraqqiyoti indeksini o‘rganishni davom ettirib, Singapur misolida korrelyatsion-regression tahlil o‘tkazdik. Sog‘liqni saqlash xarajatlari YaIM bilan 0.78 korrelyatsiya koeffitsiyentiga ega bo‘lib, iqtisodiy o‘shishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Patentlar soni YaIM bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib (0.95 koeffitsiyenti), innovatsiyalarning rolini ta‘kidlaydi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari xarajatlari ham YaIM bilan kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatadi (koeffitsiyent 0.97).

Inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi xalqaro tajriba tahlili asosida O‘zbekistonda telemeditsina va uzluksiz ta‘limga (lifelong learning) investitsiyalar

²⁰ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

modeli taklif etildi. Ushbu yo‘nalishlarni joriy etish bo‘yicha ishlab chiqilgan reja aholining malakasini oshirish va sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlashga xizmat qilishga qaratilgan.

4-jadval

**Human development indeksida maksimal qiymatga ega 20 ta davlat
(1990-2022)²¹**

Rey ting	Mamlakat	1990	2000	2010	2015	2019	2020	2021	2022
1	Shveysariya	0,850	0,885	0,940	0,952	0,960	0,957	0,965	0,967
2	Norvegiya	0,845	0,914	0,938	0,952	0,961	0,963	0,964	0,966
3	Islandiya	0,834	0,895	0,927	0,948	0,958	0,955	0,957	0,959
4	Gonkong, Xitoy	0,739	0,831	0,914	0,936	0,953	0,955	0,959	0,956
5	Daniya	0,839	0,890	0,913	0,936	0,946	0,946	0,947	0,952
6	Shvetsiya	0,808	0,903	0,910	0,937	0,947	0,944	0,949	0,952
7	Germaniya	0,828	0,890	0,929	0,941	0,951	0,948	0,948	0,950
8	Irlandiya	0,743	0,851	0,908	0,924	0,942	0,945	0,946	0,950
9	Singapur	0,780	0,863	0,921	0,935	0,945	0,942	0,942	0,949
10	Avstraliya	0,864	0,896	0,924	0,933	0,941	0,948	0,949	0,946
11	Niderlandiya	0,847	0,892	0,917	0,932	0,941	0,938	0,941	0,946
12	Belgiya	0,814	0,884	0,913	0,924	0,936	0,930	0,938	0,942
13	Finlyandiya	0,811	0,887	0,912	0,930	0,939	0,939	0,941	0,942
14	Lixtenshteyn	..	0,871	0,916	0,926	0,940	0,933	0,936	0,942
15	Buyuk Britaniya	0,804	0,863	0,913	0,923	0,933	0,920	0,931	0,940
16	Yangi Zelandiya	0,812	0,894	0,924	0,933	0,937	0,935	0,936	0,939
17	Birlashgan Arab Amirliklari	0,717	0,790	0,828	0,860	0,933	0,930	0,931	0,937
18	Kanada	0,861	0,890	0,911	0,927	0,932	0,928	0,934	0,935
19	Janubiy Koreya	0,731	0,824	0,890	0,908	0,922	0,922	0,926	0,929
20	Lyuksemburg	0,793	0,864	0,912	0,914	0,925	0,921	0,927	0,927

O‘zbekistonda telemeditsinani amalga oshirish bir necha muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi (5-jadval).

Birinchidan, tibbiy muassasalarni telekonsultatsiyani amalga oshirish va tibbiy ma’lumotlarni uzatish imkonini beruvchi zamonaviy uskunalar bilan jihozlash zarur. Bunga parallel ravishda, tibbiy mutaxassislar va bemorlar o‘rtasida xavfsiz ma’lumot almashish va videokonferensiyalar o‘tkazishni ta’minlaydigan ixtisoslashtirilgan dasturiy ta’minot ishlab chiqilishi kerak. Eng muhim jihat - tibbiyot xodimlarini telemeditsina texnologiyalari bo‘yicha ko‘nikmalarga o‘rgatish. Telemeditsinani mavjud sog‘liqni saqlash tizimiga samarali integratsiya

²¹ BMT Taraqqiyot dasturi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. (2024). Inson taraqqiyoti indeksi. Human Development Reports. Quyidagi manzilda mavjud: <https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index#/indicies/HDI>.

qilish uchun barcha sog‘liqni saqlash muassasalarini birlashtirgan va uzluksiz ma’lumotlar almashinuvini ta’minlaydigan yagona axborot tizimini yaratish zarur.

5-jadval

O‘zbekistonda teletibbiyot infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari²²

Bosqich	Tavsifi
1. Infratuzilmani yaratish	Tibbiyot muassasalarini zarur uskunalari bilan jihozlash
2. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish	Telekonsultatsiya platformalarini yaratish
3. Xodimlarni o‘qitish	Tibbiyot xodimlari uchun treninglar o‘tkazish
4. Mavjud sog‘liqni saqlash tizimi bilan integratsiya	Yagona axborot tizimini yaratish
5. Normativ-huquqiy tartibga solish	Qonunchilik bazasini ishlab chiqish

Telemeditsinani joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish qiyin vazifa bo‘lib, telemeditsinaning iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sirini va uning sog‘liqni saqlash samaradorligini oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilash bilan bog‘liq bilvosita ta’sirini baholashga imkon beradigan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishni talab qiladi (6-jadval).

6-jadval

Analitik matritsa: telemeditsina samaradorligini baholashning jihatlari, ko‘rsatkichlari va usullari²³

Baholash jihati	Ko‘rsatkich	Baholash usuli	Indikator misoli
Telemeditsina xizmatlarining samaradorligi	Kutish vaqtini qisqartirish	Uchrashuvni kutish vaqti ma’lumotlarini tahlil qilish	Telemeditsina joriy etilishidan oldin va keyin uchrashuvni kutish uchun o‘rtacha kutish vaqti
Aholi salomatligiga ta’siri	Surunkali kasalliklar bilan kasallanishning kamayishi	Bemorlarning tibbiy kartalarini tahlil qilish	Surunkali kasalliklar tufayli kasalxonaga yotqizilganlar sonining o‘zgarishi
Iqtisodiy ta’sir	Investitsion jozibadorlikni oshirish	Investorlarning so‘rovlari	Biznes yuritish qulayligi indeksi
Ijtimoiy ta’sir	Uzoq hududlar uchun tibbiy yordamdan foydalanishni yaxshilash	Tibbiy yordam mavjudligi ma’lumotlarini tahlil qilish	Qishloq joylarda telekonsultatsiyalar soni


Lifelong learning konsepsiyasi uzluksiz o‘rganish va ko‘nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashuvni taklif qilish orqali ushbu sa’y-harakatlarni to‘ldiradi.

Lifelong Learning tizimining turli elementlarining o‘zaro ta’siri sinergetik effekt yaratadi. Ta’lim markazlari va virtual o‘quv maydonlari har kimning

²² Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

²³ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

ehtiyotlariga moslashtirilgan moslashuvchan va xilma-xil o‘quv formatlarini taklif qilish orqali kuchlarni birlashtiradi.



2-rasm. O‘zbekistonda Lifelong Learning rivojlanishining ko‘p bosqichli modeli²⁴

